

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

D.M.Xolnazarova

Guliston davlat universiteti, dotsent

SH.Tangirberdiyev

Guliston davlat universiteti, o'qituvchi

Annotation

Ushbu maqolada huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari, bugungi kunda davlatimiz tomonidan talaba-yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning amaliyotdagi holati borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy munosabat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy davlat.

Mamlakatimiz “inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma’naviy yangilanishini, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo’shilishni ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish”[1] yo’lidan bormoqda.

2017 yil 30 iyundagi PF-6017-son “O’zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori hamda 2018 yil 14 avgustdagи PQ-3907-sон “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorga muofiq “yoshlarga oid davlat siyosatini belgilab beruvchi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholi, ayniqsa, yoshlar o’rtasida keng targ’ib qilish” chora-tadbirlari belgilandi.

Talaba yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish hamda o’rganish “jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatining istiqbollarini baholashga imkon beradi. Chunki, shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati shakllanadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulq-atvorga qaratilgan yo’l-yo’riqlar vujudga keladi. Nihoyat huquqiy tarbiyaning samaradorligi tarbiya obyekting ahholi to’g’risidagi bilimlarning chuqurligiga va darajalanganligiga muvofiq keladi. Tarbiya obyekti, shu o’rinda – yoshlarning ahvolini uning huquqiy madaniyatini ko’rsatib beradi.

Talabalarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning amaliyotdagi holatini yoritar ekanmiz, shu o’rinda huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlariga to’xtalamiz.

Huquq – huquqiy madaniyat negizi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, huquqiy madaniyatning eng birinchi va asosiy tarkibiy qismi huquqdir. Hozirgi vaqtida O'zbekiston huquqi jiddiy va tub o'zgarishlarga uchraganligi bilan ajralib turadi. Qonunlarda, davlat huquqiy tuzilishida, huquqiy tatibga solish, hamda mexanizmlarida ko'z o'ngimizda yuz berayotgan o'zgarishlar shunchalar jadal va chuqurki huquqiy rivojlanishning olamshumul, strategik istiqbollari va maqsadlari to'g'risida o'ylash, mamlakatimizda yuz berayotgan huquqiy islohotlarni jahondagi huquqiy rivojlanish jarayoni bilan "moslashtirish", unda O'zbekistonning o'rnnini hamda ushbu o'ringa mos islohotchilik yo'nalichlari va maqsadlarini aniqlash zarur.

Huquqiy madaniyatning ikkinchi elementi huquqiy munosabatlardir. Huquqiy munosabatlar – amaldagi huquqiy madaniyat. Yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabat huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlardir, degan fikr keng tarqalgan Binobarin, huquqiy munosabat, birinchi navbatda, yuridik normalarni amalga oshirishning, huquq amal qilishining natijasidir. Aynan huquqiy munosabatlar orqali huquq "yashaydi", amal qiladi. huquq subyektlarining huquqiy imkoniyatlari va yuridik majburiyatlarini amalga oshirishning haqiqiy manzarasini aynan huquqiy munosabatalarning yuzaga kelishi ko'rsatadi.

Huquqiy madaniyatning uchinchi elementi yuridik muassasalardir. Huquqiy rivojlanish va huquqiy madaniyatning xarakatlantiruvchi kuchi amaliyotchi yuristlar va huquqshunos olimlar haamda o'qituvchilardan iborat professional yuridik jamoadan iborat. Yuristlar huquqiy taraqqiyot egalari, jamiyatda yuz berayotgan huquq,huquq va huquqshunoslarning darajasi esa ularga berilgan huquqiy ta'limga bog'liq.

Huquqiy madaniyatning to'rtinchi elementi – huquqiy ong. Huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g'oyalarida namoyon bo'lgan huquqdir. Huquqiy ong huquq, va qonuniylikka munosabatdagi e'tiqodlar, tasavvurlar, baxolar, xis-tuyg'ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir. Huquqiy ong huquqiy madaniyatning davlat va jamiyatning boshqaruv ta'siriga eng kam darajada uchragan elementidir. Tezlik bilan yangi qonun qabul qilish, davlat organini tuzish mumkin, ammo insonning huquqiy ongini tezda o'zgartirib bo'lmaydi. Yuksak huquqiy ongni shakllantirish vaqt talab qiluvchi qiyin vazifadir. Yoshlar va talabalarning "huquqiy madaniyatini o'rganish, jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy xolatining istiqbollarini baholashga imkon beradi. Chunki shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati shakllanadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulq-atvorga qaratilgan yo'l-yo'riqlar vujudga keladi. Talabalarning turli huquq sohasi me'yorlarini, huquqiy prinsiplarni, davlat organlarini, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlarini tashkil etish tartibini va ularning faoliyatini bilishi" ularda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning zarur shartidir.

Talaba yoshlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning amaliyotdagi holati o'rganilar ekan, talabalarga, yoshlarga huquqiy tarbiya berishdan asosiy maqsad xar bir yosh huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me'yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof dunyoni idrok etadigan o'ziga xos "huquqiy qonun" bo'lib, u huquqiy voqelikni o'zlashtirishining mezoni sifatida gavdalanadi. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy-pedagogik qobiliyatlariga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish asosida rivojlantiriladi. Buni amalga oshirish uchun esa, "biz jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uziksiz davom ettirishimiz zarur"[2].

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 14 sentyabr.
2. Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4551-son Qarori. 2019 yil 13 dekabr.
3. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 109-111.
4. Гафуров, Б. А., & Холназарова, Д. М. (2016). Отражение социальной и религиозной политики Бабура в его завещании. *Наука и образование сегодня*, (4 (5)), 59-60.
5. Нишонова, З. У., Камилова, Н. Ф., Абдуллаева, Д. У., & Холназарова, М. Х. (2017). Ривожланиш психологияси. *Педагогик психология-Тошкент-2017-*йил.
6. Холназарова, М., & Алибаева, Д. (2021). БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА РАҲБАР ШАХСИНИНГ ИНДИВИДУАЛ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Special issue), 209-212.
7. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ҲҮҚҮКИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 225-232.
8. Kholnazarova, M. (2023). THE DEVELOPMENT STAGES OF TEACHING KUBROVIA IN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION. *Science and innovation*, 2(C11), 86-92.

9. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).
10. Kholnazarova, M. X., & qizi Khudaiberdieva, D. K. (2023). OBSESSIVE-COMPULSIVE DISORDER HISTORY AND FACTORS. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI*, 3(8), 44-47.
11. Kholnazarova, M. X., & Mukhlibayev, M. K. Age and pedagogical psychology. *Textbook. Tashkent-2014.*
12. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Kh, M. Kholnazarova "Developmental psychology. Pedagogical psychology".
13. Mamamatratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).
14. Kholbotaevna, K. M. (2023). Development of Cognitive Processes in Early Childhood. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 372-379.
15. Kholbutaevna, K. M. (2021). Features of personality psychology. *Psychology*, 58, 6165-6169.
16. Xolnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O 'ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOIY HIMYOYASINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(4), 45-47.
17. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Conferencea*, 126-134.
18. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).